

GERPETIK MENINGIT

Etiologiyasi. Gerpetik infeksiyalarda kuzatiladigan meningit chaqiruvchilari 2-tipga kiruvchi oddiy herpes virusi (OGV-2), suvchechak va belbog' herpes viruslaridir. Asosan, jinsiy a'zolarning shilliq qavatini zararlovchi OGV-2 seroz meningit rivojlanishiga sababchi bo'ladi. Seroz meningit rivojlanishi uchun gerpetik infeksiya avj olishi kerak. Bu infeksiyaning qo'zg'alganligini jinsiy a'zolar sohasida pufakchali toshmalar va yarachalar toshganidan, bel-dumg'aza sohasida radikulyar og'riqlar paydo bo'lganidan bilib olish mumkin. OGV-1 ko'pincha uch shoxli nerv gangliyasini zararlaydi yoki ensefalit sababchisi bo'ladi, OGV-2 esa orqa miyaning bel-dumg'aza sohasi gangliylarini zararlaydi.

Klinikasi. Kasallik klinikasi barcha o'tkir seroz meningitlarga o'xshab tez rivojlanadi. Tana harorati 39-40°C gacha ko'tariladi. Kuchli bosh og'rig'i, ketma-ket qusish va meningeal simptomlar paydo bo'ladi. Bemor hushini yo'qota boshlaydi va komaga tushadi. Likvorda limfositlar pleositoz aniqlanadi. Kuchli og'riqlar fonida aseptik meningit belgilari o'tkir tarzda paydo bo'ladi. Genital toshmalar bel-dumg'aza sohasida radikulyar og'riqlar va meningeal simptomlar bilan birgalikda paydo bo'lsa, gerpetik meningit rivojlanganlik ehtimoli juda yuqori.

Suvchechak va belbog' herpes viruslari chaqirgan seroz meningitlar klinikasi ham OGV-2 chaqirgan meningit klinikasiga o'xshab kechadi. Tashxis qo'yish uchun meningitni qaysi virus chaqirganligini likvorda PZR usuli orqali tekshirib aniqlash mumkin. Asosiy davolash vositasi antivirus dorilarni tavsiya etishdan iborat. Bu maqsadda asiklovirni 250 mg dan kuniga 4 mahal bir hafta mobaynida ichish buyuriladi. Shuningdek, simptomatik davolash muolajalari ham o'tkaziladi.

Manba: © Z. Ibodullayev. Asab kasalliklari. 2-nashr. Darslik, Toshkent, 2021., 960 b.

© Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.

© Ibodullayev ensiklopediyasi

© www.asab.uz